QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Ped.34.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI

IKROMOVA MADINAXON BAXTIYORJON QIZI

INNOVATSION TA’LIM MUHITIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH
(“Kreativ pedagogika” fani misolida)

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Pedagogika fanlari)

PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya
AVTOREFERATI

Qo‘qon – 2026

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical sciences

Ikromova Madinaxon Baxtiyorjon qizi
Innovatsion ta’lim muhitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (“Kreativ pedagogika” fani misolida)..... 3

Икромова Мадинахон Бахтиёржон кызы
Совершенствование методики развития креативности будущих учителей в инновационной образовательной среде (на примере дисциплины «Креативная педагогика») 29

Ikromova Madinaxon Bakhtiyorjon kizi
Improving the methodology for developing creativity in future teachers in an innovative educational environment (using the example of the subject "Creative Pedagogy")..... 59

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 64

QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Ped.34.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI

IKROMOVA MADINAXON BAXTIYORJON QIZI

INNOVATSION TA’LIM MUHITIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH
(“Kreativ pedagogika” fani misolida)

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Pedagogika fanlari)

PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya
AVTOREFERATI

Qo‘qon – 2026

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/Ped10822 raqam bilan ro‘yxatga olingan

Doktorlik dissertatsiyasi Qo‘qon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.kokandsu.uz) hamda «ZiyoNet» axborot-ta’lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Kasimov Nozim Kozimovich** filologiya fanlari nomzodi, professor
Rasmiy opponentlar:	**Artikova Muxayyoxon Botiraliyevna** pedagogika fanlari doktori, professor
	Xo’jamberdiyeva Shaxnoza Ko’paysinovna pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Farg‘ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qo‘qon davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.12.2025.Ped.34.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “19” 11 kuni soat 11.00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 150700, Qo‘qon shahri, Turon ko‘chasi 23-uy. Tel.: (998) 73-542-38-38; faks: (998) 73-542-11-43; e-mail: info@kokandsu.uz, kokandsu.edu@gmail.com.

Dissertatsiya bilan Qo‘qon davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№80-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 150700, Qo‘qon shahri, Turon ko‘chasi 23-uy. Tel.: (998) 73 542-38-38.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “02” 11 kuni tarqatildi.
(2026-yil “31” 10 44 - raqamli reestr bayonnomasi).

N.Sh.Erkaboyeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
Kengash raisi, p.f.d., professor

L.R.Xayitov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
Ilmiy kotibi, p.f.d.(DSc), dotsent

Z.A.Xolmatova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
Kengash huzuridagi Ilmiy seminar
raisi, p.f.d.(DSc), professor

Scanned with CamScanner

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahondagi rivojlangan mamlakatlarda talaba-yoshlar kreativligini didaktik jihatdan turli vositalar, yondashuvlar asosida muntazam ravishda tizimli rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Jahon miqyosida ta'lim taraqqiyotning muhim omili ekanligi e'tirof etilib, (WEF 2015) 2030-yilgacha qabul qilingan Ta'lim kontseptsiyasida "Ta'lim jarayonini va vositalarini takomillashtirish, erishilgan yutuq va kamchiliklarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish"[1] sifatli ta'lim olish va kreativ yoshlarni faol tarbiyalash muhim vazifa sifatida ta'kidlangan. Shu nuqtai nazardan jamiyat taraqqiyoti uchun eng muhim sanalgan ta'lim tizimi, uning maqsadi va vazifalarini innovatsion usulda takomillashtirishda ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchisi bo'lgan o'qituvchilarning kreativligini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoning rivojlangan davlatlaridagi yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari va xalqaro tashkilotlarda bo'lajak o'qituvchilarning kreativligini rivojlantirish hamda ularni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, AQSHning Garvard universitetidagi Project Zero[2] markazida kreativ fikrlash va ijodiy tafakkurni rivojlantirish, Buyuk Britaniyaning Kembrij universitetida ta'lim innovatsiyalari, Germaniyaning Humboldt universiteti va Yaponiyaning Tokyo universitetida ijodiy yondashuv va mustaqil fikrlash masalalari tadqiq etilmoqda. Shuningdek, UNESCO, OECDning "The Future of Education and Skills 2030"[3] loyihasi hamda Yevropa Ittifoqining "Key Competences for Lifelong Learning"[4] tavsiyalarida kreativlik, tashabbuskorlik va nostandart fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarning kreativligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, yoshlarning ilm-fan, madaniyat, sport va boshqa sohalardagi faolligini oshirish, ilg'or xorijiy tajribalar asosida zamonaviy raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, ta'lim oluvchilarda kreativlik va innovatsion tafakkurni rivojlantirish hamda ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida «...oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida

[1] Incheon declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).

[2] Harvard Graduate School of Education. Project Zero. Thinking Routines. Harvard University. – 2026.

[3] OECD. Future of Education and Skills 2030: OECD Learning Compass 2030. – Paris: OECD, 2019

[4] European Commission. Council Recommendation on Key Competences for Lifelong Learning. – Brussels, 2018

shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish...»[5] ga qaratilgan muhim vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarning samarali ijrosini ta’minlash ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish, bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metod, vosita va texnologiyalarni takomillashtirishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, xalqaro ilg‘or tajribalarni o‘rganish va ularni milliy ta’lim tizimi xususiyatlariga moslashtirgan holda amaliyotga tatbiq etish, ta’limning zamonaviy shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish hamda bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish dolzarb ilmiy-pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi PF-73-son “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi”, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022−2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmonlari, 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son «Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarori hamda boshqa me’yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokpatik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Innovatsion ta’lim muhiti sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativligini rivojlantirish, kreativ fikrlash, ijodiy kompetensiya hamda pedagogik innovatsiyalarni yaratish va qo‘llash qobiliyatlarini takomillashtirish masalalari respublikamiz va xorijiy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan.

Respublikamiz olimlaridan R.X. Jo‘raev, N.A. Muslimov, O. Tolipov, M. Usmonboyeva, N. Alimov, N.A. Bekmuratova, D.F. Jalolova, K. Davlatov, Sh. Sharipov, N.N. Achilov, G‘.R. Tulishov, A.M. Akramov, S.K. Abduraimova va S.A. Najmiddinovalarning ilmiy izlanishlarida bo‘lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish, kreativ fikrlashni shakllantirish hamda pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish masalalari yoritilgan[6].

[5] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son.

[6] Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. – Toshkent: Fan, 2007.Sharipov Sh.S. Pedagogik kreativlik asoslari. – Toshkent: TDPU, 2015.Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.

MDH mamlakatlari olimlari V.A. Slastenin, A.V. Xutorskoy, D.B. Bogoyavlenskaya, E.A. Kostina, M.S. Bernshteyn, S.M. Vasilenskiy, L.S. Vigotskiy, S.L. Rubinshteyn, O.A. Belyakina, E.G. Gelg‘fman, M.A. Xolodnaya, V.S. Dangoshenkov va Yu. Eroxina tadqiqotlarida talabalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish, kreativ fikrlashni qo‘llab-quvvatlash hamda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi va kreativ salohiyatini shakllantirish masalalari o‘rganilgan[7].

Kreativlikning psixologik-pedagogik mohiyati, uning tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish mexanizmlari J. Guilford, E. Torrance, H. Gardner, R. Sternberg, M. Csikszentmihalyi, K. Rogers kabi xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ta’lim jarayonida kreativlikni rivojlantirishning didaktik va metodik asoslari D. Dewey, J. Bruner, P. Torrance, K. Robinson, V.I. Andreev, I.Ya. Lerner va M.N. Skatkinlarning ilmiy ishlarida yoritilgan[8].

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash va kreativ fikrlashni shakllantirish masalalari yetarli darajada tadqiq etilgan. Biroq innovatsion ta’lim muhiti imkoniyatlari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish, uning tarkibiy modeli, mezon va ko‘rsatkichlari, darajalari hamda metodik ta’minotini ishlab chiqish masalalari alohida tadqiqot predmeti sifatida yetarlicha o‘rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qo‘qon davlat pedagogika institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq “Innovatsiyalarni pedagogika ta’limi tizimiga joriy etishning muammo va yechimlari (2022–2025-yillar)” mavzusidagi ilmiy yo’nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi innovatsion talim muhitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kreativlikning ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganish va tahlil qilish, bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy-psixologik, ijtimoiy-madaniy, innovatsion hamda refleksiv determinant komponentlarini aniqlash va tizimlashtirish, shuningdek,

---

[7] Сластенин В.А. Педагогика. – Москва: Академия, 2002. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. – 2003. – №2. Богоявленская Д.Б. Психология творческих способностей. – Москва: Academa, 2002 –С. 316.; Белякина О.А. Развитие творческих способностей учащихся в учреждении дополнительного образования. Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – Иркутск, 2004. –С.21.; Ерохина Ю. Креативная педагогическая технология формирования правовых знаний будущих педагогов профессионального обучения в учебном процессе вузов. – Москва.: МГИУ, 2008. –С. 170.; Костина Э.П. Креативная педагогическая технология музыкального образования дошкольников. Автореф. дисс. ... докт. пед. наук. – М.: 2007. – С.53.

[8] Guilford J.P. The Nature of Human Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1967.Torrance E.P. Torrance Tests of Creative Thinking. – Princeton: Personnel Press, 1974. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. – New York: Basic Books, 1983.Sternberg R.J. Handbook of Creativity. – Cambridge University Press, 1999. Dewey J. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916. Bruner J. The Process of Education. – Harvard University Press, 1960.Robinson K. Out of Our Minds: Learning to be Creative. – Capstone Publishing, 2011. Лернер И.Я., Скаткин М.Н. Проблемы методов обучения в современной школе. – Москва: Педагогика, 1980.

innovatsion ta’lim muhitining texnik, didaktik va psixologik jihatlarini chuqur o‘rganish;

bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativlikni rivojlantirishga oid mavjud ilmiy-nazariy yondashuvlarni tahlil qilish, shaxsga yo‘naltirilgan ta’limiy yondashuvning asosiy didaktik prinsiplarini aniqlash hamda ularni raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalash imkoniyatlarini belgilash, ushbu integratsiya asosida kreativ tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodlarni takomillashtirish;

mavjud nazariy manbalarni tahlil qilish asosida pedagogik model tarkibini bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bloklar bilan boyitish, innovatsion ta’lim muhiti elementlari sifatida raqamli platformalar va faol ta’lim metodlarini tanlash hamda ularni vertikal (guruhlar kesimida) va gorizontal (mavzulararo) integratsiya qilish imkoniyatlarini aniqlash;

o‘quv mashg‘ulotlarini kompyuterlashtirish asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativlikning namoyon bo‘lishini ta’minlash, ijodiy o‘quv faoliyati samaradorligini oshirish va optimallashtirish imkoniyatlarini innovatsion tashkil etish orqali ularning ilmiy-pedagogik dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida innovatsion talim muhitida bo‘lajak o’qituvchilarning kreativligini rivojlantirish jarayoni tanlangan bo‘lib, tadqiqot Namangan davlat universiteti, Termiz davlat pedagogika instituti va Qo`qon davlat universitetlarida olib borilgan, unda 642 nafar respondent ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini innovasion talim muhitida bo‘lajak o’qituvchilarning kreativligini rivojlantirishning mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy-metodik adabiyotlar, me’yoriy-huquqiy hujjatlarni o‘rganish, pedagogik kuzatish, anketa, test, pedagogik eksperiment, matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativligiga oid determinant komponentlar kasbiy-pedagogik muammolarga noodatiy echim topish, yangi g‘oyalarni ilgari surish, pedagogik vaziyatlarni variativ loyihalash hamda ijodiy faoliyat natijalarini refleksiv baholash imkoniyatlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish asosida aniqlashtirilgan;

talabalarda kreativlikni takomillashtirishning metodik asoslari shaxsga yo‘naltirilgan ta’limiy yondashuvning asosiy didaktik prinsiplari (mustaqil izlanish, ijodiy qaror qabul qilish, differensial va adaptiv ta’lim) hamda raqamli texnologiyalarni (ta’limiy platformalar, interaktiv resurslar, mobil ilovalar va sun’iy intellektga asoslangan vositalar) kreativ topshiriqlar mazmuniga funksional-didaktik jihatdan integratsiyalash orqali takomillashtirilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik model tarkib jihatdan integrativ bloklar (shaxsiy-psixologik, bilim-ko‘nikma va ijodiy-pedagogik faoliyat) bilan boyitilib, innovatsion ta’lim muhiti elementlari (raqamli platformalar, interaktiv ta’lim vositalari va faol o‘qitish

metodlari)ni vertikal (guruhlar kesimida) va gorizontal (mavzulararo) uyg‘unlashtirish orqali takomillashtirilgan;

mashg‘ulotlar jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativligini rivojlantirishning diagnostik apparati ijodiy o‘quv faoliyati samaradorligini motivatsion, kognitiv, faoliyatli va refleksiv mezonlar asosida ob’ektiv baholash orqali oshirish, uni individual rivojlanish dinamikasiga muvofiq korreksiyalash va optimallashtirish hamda innovatsion tashkil etish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, ularning ilmiy-pedagogik dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi parametrlarni bir tizimga keltirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Innovatsion talim muhitida bo‘lajak o’qituvchilarning kreativ qobiliyatlarini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirishning didaktik ta’minoti yaratilgan va u ijodiy va kreativ fikrlashlarini loyihaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanib oshirish modelini tabaqalashtirilgan;

bo‘lajak o’qituvchilarning kreativligini rivojlantirish jarayonida auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etish uchun «Kreativ pedagogika» fanini o‘qitish bo‘yicha interaktiv mobil ta’lim ilovasi ishlab chiqilgan;

ta’lim sifatini ta’minlashda mobil texnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha mashg‘ulotlarni interaktiv mobil ta’lim texnologiyalari asosida o‘tkazish uchun mo‘ljallangan ta’lim texnologiyalarini dinamik boshqaruvchi (https:kasblar-atlasi.uz/pedagogika) web ilova yaratilgan;

interaktiv texnologiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiyalashning samarali usullarini ko‘rsatuvchi ta’lim texnologiyalari, ta’lim modeli, «Tarmoq texnologiyalari» nomli o‘quv qo‘llanma yaratilgan;

interaktiv mobil ta’lim ilovalari asosida innovatsion ta’lim texnologiyalarini qo‘llash orqali bo‘lajak o’qituvchilar kreativligini rivojlantirishda «Kreativ pedagogika» fanini o‘qitish metodikasi takomillashtirilgan;

«Kreativ pedagogika» fanida talabalarning kreativligini takomillashtirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlari o‘tkazilib, olingan natijalar asosida ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda kreativ faoliyat, nazariy va amaliy ma’lumotlarning olingan natijalar bilan mos kelishi, olib borilgan tekshiruvlarning uslubiy jihatdan to‘g‘riligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining asoslanganligi, xulosa va berilgan takliflarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mavzu doirasidagi ilmiy izlanishlar natijasida dars mashg‘ulotlarining tashkiliy-pedagogik tuzilmasining ishlab chiqilganligi, kasbiy ko‘nikmalarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan didaktik vositalarning mavjudligi, mashg‘ulotlarning ta’limda innovatsion tizimini ta’minlovchi mexanizm yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan samarali mashg‘ulot shakllari va metodlari, ilmiy asoslangan metodik tavsiyalar hamda to‘plangan tajriba natijalaridan oliy ta’lim muassasalarida foydalanish orqali innovatsion ta’lim muhitida talabalarning kreativligi, ilmiy-innovatsion faolligi va kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, ta’lim jarayoni samaradorligi hamda pedagogik faoliyat unumdorligini oshirish imkoniyati bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Innovasion talim muhitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot natijalari asosida:

bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativligiga oid determinant komponentlar kasbiy-pedagogik muammolarga noodatiy echim topish, yangi g‘oyalarni ilgari surish, pedagogik vaziyatlarni variativ loyihalash hamda ijodiy faoliyat natijalarini refleksiv baholash imkoniyatlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish asosida aniqlashtirishga oid tavsiyalardan “Tarmoq texnologiyalari” nomli o‘quv qo‘llanmasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 9-sentyabrdagi 302- buyrug‘i asosida berilgan 302-53-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada kreativlikning ilmiy-nazariy asoslarini tizimli o‘rganish, ijodiy o‘quv faoliyati samaradorligini optimallashtirish hamda uni takomillashtirish imkoniyatlari kengaytirilgan;

talabalarda kreativlikni takomillashtirishning metodik asoslari shaxsga yo‘naltirilgan ta’limiy yondashuvning asosiy didaktik prinsiplari (mustaqil izlanish, ijodiy qaror qabul qilish, differensial va adaptiv ta’lim) hamda raqamli texnologiyalarni (ta’limiy platformalar, interaktiv resurslar, mobil ilovalar va sun’iy intellektga asoslangan vositalar) kreativ topshiriqlar mazmuniga funksional-didaktik jihatdan integratsiyalash orqali takomillashtiishga oid xulosalar “Tarmoq texnologiyalari” nomli o‘quv qo‘llanma mazmunini qamrab oladi va ta’lim tizimiga qabul qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 9-sentyabrdagi 302- buyrug‘i asosida berilgan 302-53-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada talabalarning kreativligini baholash va rivojlantirishning metodik ta’minoti boyitildi hamda mavjud ilmiy-nazariy yondashuvlarning ta’lim jarayoniga integratsiyasi ta’minlangan;

bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik model tarkib jihatdan integrativ bloklar (shaxsiy-psixologik, bilim-ko‘nikma va ijodiy-pedagogik faoliyat) bilan boyitilib, innovatsion ta’lim muhiti elementlari (raqamli platformalar, interaktiv ta’lim vositalari va faol o‘qitish metodlari)ni vertikal (guruhlar kesimida) va gorizontal (mavzulararo) uyg‘unlashtirish orqali takomillashtirishga oid takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining “2021-2023 yillarga mo‘ljallangan imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyatdagi faolligini oshirishga qaratilgan multimedia mahsulotini yaratish” nomli ilmiy-amaliy grant loyihasi doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining 2021 yil 1 iyundagi C202003161-son shartnomasi). Natijada bo‘lajak o‘qituvchilar kreativligini rivojlantirishga

xizmat qiluvchi pedagogik modelning tarkibiy tuzilmasi ilmiy asosda boyitilgan va amaliy qo‘llash mexanizmi takomillashtirilgan;

mashg‘ulotlar jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativligini rivojlantirishning diagnostik apparati ijodiy o‘quv faoliyati samaradorligini motivatsion, kognitiv, faoliyatli va refleksiv mezonlar asosida ob’ektiv baholash orqali oshirish, uni individual rivojlanish dinamikasiga muvofiq korreksiyalash va optimallashtirish hamda innovatsion tashkil etish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, ularning ilmiy-pedagogik dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi parametrlarni bir tizimga keltirish asosida takomillashtirishga oid tavsiya va xulosalar “Tarmoq texnologiyalari” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 9-sentyabrdagi 302- buyrug‘i asosida berilgan 302-53-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada bo‘lajak o‘qituvchilar kreativligini baholash mezonlari tizimlashtirilgan hamda ularning ilmiy-pedagogik dunyoqarashini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, 135 sahifa matn, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqot ishining maqsad, vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlarga mosligi va tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e’lon qilinganligi, tadqiqot ishining tuzilishi haqida ma’lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning “**Innovasion talim muhitida bo’lajak o’qituvchilar kreativligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida pedagogik kadrlar tayyorlashda kreativlikni rivojlantirish muhim pedagogik muammo sifatida namoyon bo’lishi, innovasion talim muhitida bo‘lajak o’qituvchilar kreativligini rivojlantirishda “Kreativ pedagogika” fanining pedagogik imkoniyatlari, bo’lajak o’qituvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga oid yetakchi tajribalar tahlili yoritib berilgan.

Zamonaviy dunyoda ta’lim jarayonlari raqamli texnologiyalar, ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar va madaniy xilma-xillik ta’sirida murakkablashmoqda. Tadqiqotlar

o‘qituvchilarning kreativligini baholash orqali yangi vaziyatlarga moslashuvchan, turli ehtiyojlarga mos yondashuvlarni ishlab chiqishi hamda o‘quvchilarni murakkablikni idrok etishga o‘rgatishi zarurligini ta’kidlashadi. Shu bois, pedagogik kadrlar tayyorlashda kreativlikni rivojlantirish zaruriy pedagogik muammo sifatida qaralmoqda.

Kreativlik atamasini o‘rganish bo‘yicha katta va mazmunli material to‘plangan va bu nazariy-amaliy jihatdan ma’lum natijalarga olib kelgan bo‘lsa-da, kreativlikning yagona va izchil nazariyasi, ayniqsa ta’lim tizimida, hali ham mavjud emas, ya’ni ko‘plab tadqiqotchi-olimlar tomonidan turli xil ta’riflar va qarashlar mavjud. Masalan, I.P.Nikitinaning fikricha, sanoat falsafasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri “kreativlik” tushunchasi qo‘llanilmaydi, biroq “inson muntazam ravishda o‘zining shaxsiy “chegarasi”dan – o‘zining imkoniyatlari, hayoti va o‘z dunyosidan” chetga chiqishga harakat qiladi.

Pedagogikada kreativlik insonning “ijodga qobiliyatliligi” tushuniladi va intellektning rivojlanish darajasi bilan aloqadorlikda tahlil qilinadi. Pedagogik faoliyatda kreativlik — bu uning barcha yo‘nalishlarida: ta’lim jarayonini loyihalash, pedagogik muloqot, innovatsion metodlarni qo‘llash, muammoli vaziyatlarni hal etish hamda pedagogik tahlil jarayonida namoyon bo‘ladigan integral sifatdir. U nafaqat yangi pedagogik g‘oyalarni yaratish, balki mavjud ta’limiy tajribalar asosida yangi metodik yondashuvlarni shakllantirish jarayonini ham o‘z ichiga oladi. O‘qituvchining kreativligi — uning dars jarayonida, o‘quvchilar bilan ishlashda va ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda yangilikka intilishi, original hamda ijodiy yondashuvlarni namoyon etishidir.

So‘nggi yillarda bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativligini rivojlantirish masalalari qator tadqiqotlarda o‘rganilgan. Jumladan, G‘.R. Tulishov (2023) bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ kompetentligining tuzilmasi va mazmunini, N.N. Achilov (2022) kreativlikni rivojlantirish usullarini, A.M. Akramov (2025) kreativlikning pedagogik faoliyatdagi ahamiyati va uni rivojlantirish zaruratini, S.K. Abduraimova (2025) innovatsion ta’lim muhitida kreativ pedagog shaxsini shakllantirish mexanizmlarini, S.A. Najmiddinova (2025) esa bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik asoslarini tadqiq etgan.

Mazkur tadqiqotlarda asosan kreativ kompetentlikning mohiyati va tarkibiy tuzilishi, kreativlikni rivojlantirish usullari hamda innovatsion ta’lim muhitining pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Biroq innovatsion ta’lim muhiti sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativligini aynan “Kreativ pedagogika” fani mazmuni asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish, uning modeli, mezonlari, ko‘rsatkichlari va metodik tizimini ishlab chiqish, shuningdek, raqamli ta’lim vositalari asosida tajriba-sinovdan o‘tkazish masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shu jihatdan mazkur tadqiqot mavjud ilmiy izlanishlarni to‘ldiradi va o‘zining ilmiy yangiligi bilan tavsiflanadi.

Mazkur masala bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar (J. Guilford, Teresa Amabile, E. Torrance, A. Slastenin, L. Vygotskiy va boshqalar) tahlili jarayonida bo‘lajak o‘qituvchidagi kreativlikning determinant komponentlari, ya’ni

ijodkorlikning shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida quyidagilar aniqlandi (1-rasmga qarang):



1-rasm. Bo’lajak o’qituvchidagi kreativlikning determinant komponentlari

Shunday qilib, fikrimizcha pedagogik ta’limda kreativlik - bu kognitiv, emotsional, motivatsion, metodik-refleksiv va ijtimoiy-kommunikativ komponentlarning o‘zaro uyg‘un ta’siri natijasida namoyon bo‘ladigan murakkab kasbiy sifatdir. U bo‘lajak o‘qituvchining innovatsion fikrlashi, pedagogik muammolarga nostandart yechim topishi, ta’lim jarayonini samarali tashkil etishi hamda o‘quvchilar bilan ijodiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion ta’lim muhiti – bu ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli vositalar, interaktiv metodlar va ijodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlovchi shart-sharoitlar majmuasidir. Mazkur muhit talabaning mustaqil fikrlashi, tashabbuskorligi, ijodiy faolligi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Innovatsion ta’lim muhiti bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativligini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Bunday muhitda talaba: mustaqil ravishda bilimlarni izlaydi va tahlil qiladi; muammolarga turli nuqtai nazardan yondashadi; innovatsion g‘oyalarni ilgari suradi; raqamli vositalardan foydalangan holda yangi mahsulotlar yaratadi; hamkorlikdagi faoliyat orqali ijodiy tajriba orttiradi.Shu sababli innovatsion ta’lim muhiti kreativ fikrlash, moslashuvchanlik, tashabbuskorlik va innovatsion faoliyatning muhim omili hisoblanadi.

Innovatsion ta’lim muhiti bo‘lajak o‘qituvchilar kreativligini rivojlantirishning muhim pedagogik omili bo‘lib, u zamonaviy texnologiyalar, innovatsion metodlar va ijodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlovchi shart-sharoitlar majmuasi sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur muhitda tashkil etilgan ta’lim jarayoni bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ salohiyatini rivojlantirish, innovatsion faoliyatga tayyorlash hamda kasbiy kompetentligini shakllantirishga xizmat qiladi. Bo‘lajak

o‘qituvchi o‘zining kasbiy-ijodiy faoliyatida ta’lim vositasida o‘quvchi bilan samarali kommunikativ va emotsional muloqot o‘rnatadi, ularni mustaqil va tanqidiy fikrlashga yo‘naltiradi.


Yuqoridagilardan kelib chiqib mualliflik ta’rifimizni keltirishimiz mumkin:

Innovatsion ta’lim muhiti - bo‘lajak pedagoglarning kreativligi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli vositalar, interaktiv hamkorlik va innovatsion ta’lim metodlari integratsiyasi asosida tashkil etilgan pedagogik shart-sharoitlar tizimidir.

Pedagogik faoliyatda kreativlik - pedagogning ta’lim jarayonini loyihalash, pedagogik muloqotni samarali tashkil etish, innovatsion metod va texnologiyalarni qo‘llash, muammoli vaziyatlarga original yechimlar topish hamda pedagogik faoliyat natijalarini tahlil va refleksiya qilish jarayonlarida namoyon bo‘ladigan integrativ kasbiy-shaxsiy sifatdir.

Bo‘lajak o‘qituvchi innovasion ta'lim muhitining sub'ekti va tashkilotchisi sifatida yangilikni yaratish, qo‘llash hamda ommalashtirishda ishtirok etadi. U fandagi bilim, an'analardagi o‘zgarishlar mazmunini va mohiyatini tahlil eta bilishi kerak. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak o‘qituvchlari uchun innovatsion ta’lim muhitida kreativlikni rivojlantirish – bu faqat texnika yoki instrument mahoratini oshirish emas, balki pedagoglarning o‘z ta’lim jarayonlarini yangicha kontekstga moslab fikrlash, ifoda va hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishni anglatadi.

Innovatsion ta’lim muhitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativligini rivojlantirish omillari quyidagicha umumlashtirilishi mumkin (2-ramga qarang):



2 -rasm. Innovatsion ta’lim muhitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativligini rivojlantirish omillari

Nazariy jihatdan bo‘lajak o‘qituvchining kreativligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvlar kognitiv-metakognitiv, motivatsion-emotsional,

sotsiokultural-hamkorlik va texnologik-metodologik komponentlardan tashkil topgan bo‘lishi lozim. Innovatsion ta’lim muhitida ushbu komponentlarni uyg‘unlashtirish va rivojlantirish orqali pedagogika fani o‘qituvchilari o‘z pedagogik amaliyotida yangi, ijodiy va samarali yo‘llarni yaratishlari mumkin.

Dissertatsiyaning “**Innovatsion talim muhitida bo’lajak o’qituvchilarning kreativligini rivojlantirish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida innovasion talim muhitida bo’lajak o’qituvchilarning kreativligini rivojlantirish modeli, “Kreativ pedagogika” fanida bo‘lajak o’qituvchilarning kreativligini rivojlantirishga oid metod, shakl va vositalar hamda pedagogika ta’limi yo’nalishi talabalarining kreativligini rivojlantirishda o‘quv-axborot tizimidan foydalanish texnologiyasi bayon etilgan.

Innovatsion ta’lim muhitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativligini rivojlantirish jarayoni quyidagi o‘zaro uzviy bog‘liq yo‘nalishlar asosida tashkil etilgan: 1) Motivatsion-shaxsiy yo‘nalish-kasbiy faoliyatga qiziqish, ijodiy tashabbuskorlik, yangilikka intilish va mustaqil fikrlashni rivojlantirish; 2) Ijtimoiy-kommunikativ yo‘nalish-hamkorlikda ishlash, fikr almashish, pedagogik vaziyatlarga ijodiy yondashish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ijodiy faoliyatni tashkil etish; 3) Innovatsion-texnologik yo‘nalish-raqamli ta’lim resurslari, interfaol metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar vositasida original g‘oyalarni ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish; 4) Refleksiv-baholash yo‘nalishi-ijodiy faoliyat natijalarini tahlil qilish, o‘z-o‘zini baholash, mustaqil xulosa chiqarish va kreativ rivojlanish istiqbollarini belgilash.

Mazkur yo‘nalishlarning innovatsion ta’lim muhitining texnologik, didaktik-metodik, ijtimoiy-psixologik va refleksiv imkoniyatlari bilan integratsiyasi bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ fikrlash, original pedagogik g‘oyalarni ishlab chiqish, nostandart yechimlarni topish va ularni pedagogik amaliyotga tatbiq etish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Innovatsion ta’lim muhitining bo‘lajak o‘qituvchilar kreativligini rivojlantirish imkoniyatlari

Muhit jihatlari	Mazmuni	Kreativlikni rivojlantirishga ta’siri
Texnologik	Raqamli ta’lim resurslari, elektron platformalar, sun’iy intellekt vositalari	Pedagogik g‘oyalarni yaratish, raqamli loyihalash va amaliyotga tatbiq etish imkoniyatini kengaytiradi.
Didaktik-metodik	Muammoli ta’lim, interfaol metodlar, loyiha va ijodiy topshiriqlar	Kreativ fikrlash, original g‘oyalar ishlab chiqish va nostandart pedagogik yechimlar topish qobiliyatini rivojlantiradi.
Ijtimoiy-psixologik	Ijodiy erkinlik, o‘zaro hamkorlik, ijobiy psixologik muhit	Ijodiy tashabbuskorlik, mustaqil fikrlash va o‘z g‘oyalarini erkin ifodalashni rag‘batlantiradi.
Refleksiv-baholash	O‘z-o‘zini tahlil qilish, o‘zaro baholash, ekspert bahosi	Ijodiy faoliyat natijalarini tahlil qilish, baholash va takomillashtirish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Mazkur jadvalda keltirilgan innovatsion ta’lim muhitining jihatlari o‘zaro uzviy aloqadorlikda bo‘lib, bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativligini rivojlantirishning texnologik, didaktik, ijtimoiy-psixologik va refleksiv shart-sharoitlarini ta’minlaydi. Ularning integratsiyasi ta’lim jarayonida kreativ g‘oyalarni shakllantirish, pedagogik vaziyatlarni mustaqil loyihalash va innovatsion yechimlarni amaliyotga tatbiq etishga yo‘naltirilgan metodik faoliyat samaradorligini oshiradi.


Innovatsion ta’lim muhitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativligini rivojlantirish jarayonining maqsadli, mazmuniy, tashkiliy-metodik va natijaviy jihatlarini o‘zaro uzviy bog‘liqlikda tashkil etish zarurati tadqiqot doirasida maxsus model ishlab chiqishni taqozo etdi. Mazkur model “Kreativ pedagogika” fanining mazmunini takomillashtirish, innovatsion pedagogik metodlar va raqamli ta’lim resurslaridan samarali foydalanish hamda talabalarning kreativ faoliyatini izchil rivojlantirishga yo‘naltirildi.

Modelni shakllantirishda tizimli, kompetensiyaviy, faoliyatga yo‘naltirilgan va kreativ yondashuvlar metodologik asos sifatida belgilandi. Uning mazmuni bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlar, pedagogik shart-sharoitlar, ta’lim metodlari, vositalari va kutilayotgan natijalarni qamrab oladi. Shu asosda innovatsion ta’lim muhitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativligini rivojlantirishning tarkibiy-funksional modeli ishlab chiqildi (3-rasmga qarang).

Ishlab chiqilgan model o‘zaro uzviy bog‘liq maqsadli, metodologik, mazmunli, tashkiliy-metodik, baholash-diagnostik va natijaviy bloklardan tashkil topgan bo‘lib, innovatsion ta’lim muhitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativligini bosqichma-bosqich rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Maqsadli blok innovatsion ta’lim muhiti imkoniyatlari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ fikrlashi, ijodiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarligi, original yechim topish qobiliyati va kasbiy-metodik kreativligini rivojlantirish maqsadini hamda ushbu maqsadga erishishga xizmat qiluvchi vazifalarni belgilaydi. Bunda kreativlikka oid nazariy bilimlarni shakllantirish, ijodiy faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirish, muammoli va loyiha topshiriqlari asosida tajribani boyitish, refleksiya va o‘zini baholash qobiliyatlarini rivojlantirish nazarda tutiladi.

Metodologik blok kreativlikni rivojlantirish jarayonining ilmiy-nazariy asoslarini belgilab, kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatga yo‘naltirilgan, kreativ, muammoli ta’lim, innovatsion-raqamli va refleksiv yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, ilmiylik va izchillik, tizimlilik va uzviylik, nazariya va amaliyot birligi, mustaqillik va ijodiy faollik, individuallashtirish, innovatsionlik va kreativlik, refleksivlik tamoyillari hamda tegishli davlat ta’lim standartlari, malaka talablari va o‘quv dasturlari metodologik asos sifatida belgilangan.



3-rasm. Innovatsion talim muhitida bo'lajak o'qituvchilarning kreativligini rivojlantirish modeli

Mazmunli blok “Kreativ pedagogika” fanining takomillashtirilgan mazmunini ifodalab, nazariy, amaliy-metodik va ijodiy-tadqiqot mazmuni orqali amalga oshiriladi. Nazariy mazmun kreativlik, kreativ kompetentlik, innovatsion ta’lim muhiti, muammoli ta’lim, loyiha faoliyati va raqamli pedagogika tushunchalarini qamrab oladi. Amaliy-metodik mazmun muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, kreativ dars ishlanmalarini yaratish, innovatsion metodlarni qo‘llash va raqamli vositalar yordamida topshiriqlar bajarishga yo‘naltiriladi. Ijodiy-tadqiqot mazmunida esa kichik pedagogik tadqiqotlar, ijodiy portfel shakllantirish, innovatsion loyihalar ishlab chiqish, yangi g‘oyalarni yaratish va sinash faoliyatlari nazarda tutiladi.

Tashkiliy-metodik blok kreativlikni rivojlantirish jarayonining mazmuni, metodlari, vositalari va tashkiliy shakllarini birlashtiradi. Bunda innovatsion ta’lim muhitining raqamli resurslar, muammoli vaziyatlar, hamkorlik va refleksiv faoliyat imkoniyatlaridan foydalaniladi. Muammoli ta’lim, case-study, loyiha metodi, aqliy hujum, dizayn fikrlash, rolli o‘yin va refleksiv tahlil metodlari qo‘llaniladi. Elektron platformalar, multimedia, kreativ topshiriqlar banki, kasbiy vaziyatlar to‘plami, rubrikalar va ijodiy portfel ta’lim vositalari sifatida belgilanadi. Mazkur jarayon ma’ruza-munozara, amaliy mashg‘ulot, seminar-trening, loyiha ishlari, mustaqil ta’lim, ijodiy laboratoriya va praktikum shakllarida tashkil etiladi.

Pedagogik shart-sharoitlar modelning barcha tarkibiy qismlarini samarali amalga oshirishni ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi. Jumladan, nazariya va amaliyotga yo‘naltirilgan topshiriqlar integratsiyasini ta’minlash, real hayotiy va kasbiy-pedagogik muammolar asosida faoliyatni tashkil etish, ochiq va hamkorlikka asoslangan kreativ muhitni shakllantirish, talabalarni loyiha, tadqiqot va refleksiv faoliyatga jalb etish hamda baholash jarayonida original yechim va ijodiy mahsulotni hisobga olishga alohida e’tibor qaratiladi.

Baholash-diagnostik blok bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativligini aniqlash, rivojlanish dinamikasini kuzatish va erishilgan natijalarni baholashga xizmat qiladi. Bunda motivatsion-qadriyatli, kognitiv, operatsion-faoliyatli, kommunikativ-hamkorlik, refleksiv-baholovchi hamda emotsional-irodaviy mezonlar asosida kreativlikning rivojlanish holati aniqlanadi. Belgilangan mezonlar yangilikka qiziqish, kreativ bilim, original yechim, ijodiy muloqot, refleksiya va tashabbuskorlik ko‘rsatkichlari orqali baholanadi. Diagnostika jarayonida kuzatish, so‘rovnoma, test, ekspert bahosi, portfel va ijodiy topshiriqlar tahlilidan foydalanilib, kreativlikning past, o‘rta va yuqori darajalari aniqlanadi.


Natijaviy blok modelni amalga oshirish yakunida erishilishi kutilayotgan natijani ifodalaydi. Unga ko‘ra, kreativ kompetentligi rivojlangan, innovatsion pedagogik faoliyatga tayyor, mustaqil fikrlaydigan, original va kasbiy-metodik yechimlar ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo‘lajak o‘qituvchini shakllantirish ko‘zda tutiladi.

Umuman olganda, ishlab chiqilgan modelning samaradorligi uning tarkibiy bloklari o‘rtasidagi uzviylik, mazmun va jarayonning izchilligi, pedagogik shart-sharoitlarning ta’minlanganligi hamda baholash-diagnostik mexanizmlarning

muntazam qo‘llanilishi bilan belgilanadi. Modelni ta’lim jarayoniga tatbiq etish bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ fikrlashidan boshlab, mustaqil innovatsion pedagogik yechimlar ishlab chiqishigacha bo‘lgan faoliyatini tizimli tashkil etish imkonini beradi.

Tadqiqot jarayonida innovatsion ta’lim muhitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativligini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida “Kreativ pedagogika” fanining mazmunini takomillashtirishga xizmat qiluvchi zamonaviy pedagogik metodlar tahlil qilindi. Jumladan, loyihaviy ta’lim, muammoli ta’lim, 4K modeli, teskari sinf, aqliy hujum, STEM yondashuvi va dizayn tafakkuri metodlarining didaktik imkoniyatlaridan foydalanish nazarda tutildi.

Mazkur metodlarni bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ faoliyatiga yo‘naltirish hamda ularning imkoniyatlarini yagona izchil jarayonda amalga oshirish maqsadida “Innovatsion pedagogik vaziyatlarni kreativ loyihalash” mualliflik metodikasi ishlab chiqildi (4-rasmga qarang).



4-rasm. Innovatsion pedagogik vaziyatlarni kreativ loyihalash metodikasi

Mavjud pedagogik metodlar va mualliflik metodikasining mazmuniy hamda funksional xususiyatlari qiyosiy tavsiflandi. (2-jadvalga qarang).

2-jadval

“Kreativ pedagogika” fani mazmunini takomillashtirishda qo‘llaniladigan pedagogik metodlar va mualliflik metodikasining qiyosiy tavsifi

№	Mavjud pedagogik metodlar	“Kreativ pedagogika” fanidagi qo‘llanilishi	Mualliflik metodikasi	Mualliflik metodikasining o‘ziga xos mazmuni
1	Loyihaviy ta’lim (Project Based Learning)	Talabalarda ijodiy loyihalar yaratish va mustaqil faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirish.	“Innovatsion pedagogik vaziyatlarni kreativ loyihalash” metodikasi	Pedagogik vaziyatlarni aniqlash, tahlil qilish va ular asosida innovatsion loyihalar ishlab chiqish.
2	Muammoli ta’lim (Problem Based Learning)	Muammoli pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va muqobil yechimlar topishga o‘rgatish.	Mualliflik metodikasining muammoli vaziyatni aniqlash bosqichi	Ta’lim jarayonidagi muammolarni aniqlash, ularning sabablarini tahlil qilish va kreativ yechim talab qiluvchi vaziyatlarni shakllantirish.
3	Brainstorming (Aqliy hujum)	Bir muammo yuzasidan turli g‘oyalarni ilgari surish va noodatiy fikrlashni rag‘batlantirish.	Mualliflik metodikasining kreativ g‘oyalar generatsiyasi bosqichi	Muammoli vaziyatga nisbatan original g‘oyalar, yangi pedagogik yondashuvlar va muqobil yechimlarni ishlab chiqish.
4	Design Thinking	Ta’lim oluvchilar ehtiyojlarini hisobga olgan holda kreativ yechimlarni loyihalash.	Mualliflik metodikasining variativ loyihalash bosqichi	Ilgari surilgan kreativ g‘oyalarni turli pedagogik ssenariylar, metodik ishlanmalar va innovatsion loyihalar shaklida ishlab chiqish.
5	STEM yondashuvi	Fanlararo integratsiya asosida ijodiy va amaliy topshiriqlarni bajarish.	Mualliflik metodikasining amaliy sinov bosqichi	Ishlab chiqilgan pedagogik yechimlarni innovatsion ta’lim muhitida sinovdan o‘tkazish va ularning amaliy samaradorligini aniqlash.
6	4K modeli	Kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikativlik va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish.	Mualliflik metodikasining refleksiv baholash bosqichi	Talabalarning kreativ faoliyat natijalarini tahlil qilish, o‘z yechimlarini baholash va takomillashtirish yo‘nalishlarini belgilash.
7	Flipped Classroom (Teskari sinf)	Nazariy bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish va auditoriyada	Metodikani amalga oshirishning	Raqamli ta’lim resurslari orqali pedagogik vaziyatlar, kreativ

		kreativ-amaliy faoliyatni tashkil etish.	raqamli-interaktiv muhiti	topshiriqlar va loyihaviy faoliyatni mustaqil hamda hamkorlikda bajarish.

Jadvalda keltirilgan qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, mavjud pedagogik metodlar “Kreativ pedagogika” fanida bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ fikrlashi, muammoli vaziyatlarga mustaqil yondashishi va ijodiy faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Taklif etilgan “Innovatsion pedagogik vaziyatlarni kreativ loyihalash” mualliflik metodikasi esa mazkur metodlarning imkoniyatlarini yagona izchil jarayonga birlashtirishi bilan farqlanadi.

Metodika muammoli vaziyatni aniqlash, kreativ g‘oyalar generatsiyasi, variativ loyihalash, amaliy sinov va refleksiv baholash bosqichlari asosida amalga oshirilib, talabalarning kreativ g‘oyalarni mustaqil ishlab chiqishdan ularni amaliy pedagogik yechimga aylantirishgacha bo‘lgan faoliyatini qamrab oladi. Ishlab chiqilgan metodik ta’minot innovatsion ta’lim muhitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativlik ko‘rsatkichlarini oshirish, ularning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish hamda zamonaviy ta’lim talablariga mos raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlash samaradorligini ta’minlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Tadqiqot doirasida innovatsion ta’lim muhitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi raqamli ta’lim resursi sifatida “Kreativ pedagogika” faniga ixtisoslashtirilgan **“https://kasblar-atlasi.uz/ pedagogika/”** elektron ta’lim platformasi ishlab chiqildi. Mazkur platforma bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish, mustaqil ta’lim faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda fan mazmunini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘zlashtirishga yo‘naltirildi.

Elektron ta’lim platformasida “Kreativ pedagogika” fanining barcha mavzulari bo‘yicha tizimlashtirilgan nazariy va amaliy materiallar, o‘quv-uslubiy ta’minot hamda interaktiv ta’lim resurslari jamlangan. Xususan, unda kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy metodlar asosida ishlab chiqilgan amaliy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, ijodiy mashqlar va metodik tavsiyalar keltirilgan.

Bundan tashqari, tadqiqot doirasida bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativligini innovatsion ta’lim muhiti sharoitida rivojlantirishga yo‘naltirilgan Raqamli-kreativ ta’lim texnologiyasi takomillashtirildi. Mazkur texnologiya muammoli ta’lim, kreativ fikrlash, loyihaviy ta’lim, raqamli ta’lim va refleksiv ta’lim texnologiyalarining o‘zaro integratsiyasiga asoslanadi. Uni amalga oshirishda “Kreativ pedagogika” fanining takomillashtirilgan mazmuni, elektron ta’lim platformasidagi nazariy materiallar, interaktiv topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, ijodiy mashqlar va metodik tavsiyalardan tizimli foydalaniladi.

Ta’lim jarayonida talabalarning pedagogik muammolarni aniqlash va tahlil qilish, kreativ fikrlash metodlari yordamida yangi g‘oyalar ishlab chiqish, loyihaviy faoliyat asosida kreativ ta’lim mahsulotlarini yaratish, raqamli vositalar yordamida ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etish hamda faoliyat natijalarini refleksiv baholash

